

BIZ YOSHLAR O‘ZBEKISTONIMIZNING KELAJAGI VA
ISTIQBOLNING POYDEVORIMIZ

Qobilov Suxrob Raufovich

Ichki ishlar organlari xodimlarining malakasini oshirish, dolzarb muammolar va yechim Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi

Ichki ishlar organlari uchun yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda huquqiy ong va kasbiy madaniyatiniyuksaltirish masalalari Respublikamizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibot, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Mazkur islohotlarni tizimli davom ettirish va yuksak natijalarga erishish uchun yuksak malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, tanlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dolzarb masallalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Sir emaski, jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash ichki ishlar organlarining xalqparvar malakali mutaxassis kadrlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shu bois, ichki ishlar organlari uchun malakali yetuk professional kadrlarni tayyorlash va tizimli malakasini oshirib borish huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tomonidan Ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo‘yicha o‘shishini ta‘minlash, shuningdek, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish maqsadida “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-sonli Qaror qabul qilindi. Mazkur qaror bilan, ilk marotaba Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibiga uzluksiz o‘quv-karera jarayoni tizimi 2021 yil 1 sentabrdan e‘tiboran joriy etilishi belgilandi. Ushbu hujjat bilan 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab, Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o‘z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta‘lim tizimi



joriy etilishi belgilandi. Bu borada Akademiyadagi ta’lim tizimi ichki ishlar organlari uchun kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlashga qaratilishi hamda birinchi kursdan boshlab mutaxassislik va yuridik fanlarni o’qitish, jangovar va jismoniy jihatdan tayyorlash chuqurlashtirilgan holda amalga oshirilishi, IIV Akademiyasining magistratura dasturi bo’yicha o’qitish ichki ishlar organlarining rahbar kadrlarini tayyorlashga qaratiladi hamda ikkinchi darajadagi “tashkiliy-taktik boshqaruv” va birinchi darajadagi “tashkiliy-strategik boshqaruv” yo’nalishlarida tashkil etilishi belgilandi. Bundan tashqari, mazkur qaror bilan Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutiga yuridik shaxs maqomi berilib, faoliyatining asosiy yo’nalishlari etib quyidagilar:

ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining barcha yo’nalishlari bo’yicha serjantlar tarkibi xodimlarini jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish sohasida maxsus kasbiy tayyorlash;

ichki ishlar organlarining safdor va ofitserlar tarkibidagi lavozimlariga birinchi marta tayinlangan xodimlarni boshlang’ich kasbiy tayyorgarlik bo’yicha o’quv dasturlari asosida o’qitish;

ichki ishlar organlarining barcha toifadagi xodimlarini innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo’llagan holda, shu jumladan turdosh yo’nalishdagi respublika oliy ta’lim muassasalari bazasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish belgilandi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatdan ajralmagan holda bevosita joylarda malakasini oshirishni ta’minlash maqsadida masofaviy va mobil sayyor kurslarni o’tkazish amaliyotini joriy etish ham belgilandi. Shuningdek, Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetida 5 oylik dastur bo’yicha ichki ishlar organlarining serjant tarkibidagi lavozimlariga nomzodlarni maxsus kasbiy tayyorlash amalga oshirilishi, kasbiy tayyorgarlik fakultetini tamomlagan xodimlarga “kichik serjant” maxsus unvoni hamda belgilangan namunadagi diplom berilishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo’yicha chora-tadbirlarni nazarda tutgan mazkur qarorning ijrosini ta’minlash yuzasidan O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2021 yil 27 avgustdagi “Ichki ishlar organlarida uzluksiz o’quv-karera jarayoni tizimini tashkil etish to’g’risida”gi 310-sonli buyrug’i qabul qilinib II O’larning uzluksiz o’quv-karera jarayoni tizimini tashkil etish mexanizmlari belgilab berildi. Shuningdek, mazkur hujjat bilan “Ichki ishlar organlarida uzluksiz o’quv-karera jarayoni tizimi asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish tartibi to’g’risida”gi nizom tasdiqlandi. Bu borada, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti



Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi”. Yuqoridagi talablar asosida uzluksiz o'quv-karera jarayoni tizimi asosida ichki ishlar organlari uchun kadrlarni tayyorlash quyidagi:

1) boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik;

2) maxsus kasbiy tayyorgarlik;

3) qayta tayyorlash;

4) malaka oshirish;

5) oliy ta'lim;

6) boshqaruv kadrlarini tayyorlash;

7) oliy ta'limdan keyingi ta'limda o'qish;

8) xizmat, jangovar va jismoniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarliklardan iboratligi belgilandi.

Yuqorida ta'kidlangan hujjatlar talabidan kelib chiqib IIV va uning bo'linmalariga quyidagilarni samarali hal etish muhim vazifalar sifatida belgilandi:

- ichki ishlar organlari xodimlarining malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, kuch va vositalarni samarali boshqarishda rahbar kadrlarning intellektual va professional salohiyatini yanada oshirish; - barcha toifadagi ichki ishlar organlari xodimlarining samarali xizmat o'tashi va ularning xizmat martabasi oshishi uchun xizmatning butun muddati davomida uzluksiz ravishda tahsil olish va malaka oshirib borishiga erishish;

- doimiy ravishda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatdan ajralmagan holda bevosita joylarda malakasini oshirishni ta'minlash maqsadida masofaviy va mobil sayyor kurslarini o'tkazib borish;

- an'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birgalikda olib boriladigan shakllarini, kadrlar malakasini oshirishni belgilangan davriyligiga rioya qilingan holda ta'lim dasturlarini, bilim va ko'nikmalarni doimiy takomillashtirishdan iborat kredit-modul mexanizmini joriy qilish.

Mazkur vazifalarni samarali hal etish maqsadida bizningcha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari, standartlarini zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro yuridik tajriba asosida yanada takomillashtirish;



ikkinchidan, tasdiqlangan davlat ta’lim talablari asosida o’quv dasturlari, ishchi fan dasturlarini, darsliklar, o’quv-uslubiy hujjatlar, o’quv qo’llanmalar, ma’ruzalar to’plamlarini yanada sifatli va tizimli tayyorlab chop ettirib borish;

uchinchidan, o’quv jarayoni va ichki ishlar organlarida huquqni muhofaza qilish hamda huquqni qo’llash amaliyoti o’rtasida uzviy aloqani ta’minlash;

to’rtinchidan, rivojlangan xorijiy va MDH davlatlarning yetakchi sohaviy ta’lim, malaka oshirish va ilmiy muassasalari bilan yanada yaqin hamkorlikni, qo’shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o’qituvchilar o’zaro tajriba almashinuvini malaka oshirishini tashkillashtirish va faollashtirish shuningdek, o’quv-ta’lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qilish;

beshinchidan, mamlakatimizning oliy harbiy ta’lim muassasalari, malaka oshirish hamda ilmiy muassasalari bilan o’zaro hamkorlikni o’rnatgan holda professor-o’qituvchilar o’zaro tajriba almashinuvini malaka oshirishini tashkillashtirish va faollashtirish, master-klass mashg’ulotlarga o’zaro qatnashuvni yo’lga qo’yish;

oltinchidan, ichki ishlar organlarining barcha toifadagi xodimlarini samarali innovatsion axborot va pedagogik texnologiyalarni qo’llagan holda o’qitish va malakasini oshirishni tashkil etish;

yettinchidan, o’qitishning kredit-modul tizimini va tinglovchilar bilimini baholash usullarini takomillashtirish, o’quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo’llash hamda o’quv bazasini modernizatsiyalash;

sakkizinchidan, ichki ishlar organlari uchun yuqori huquqiy ongli va madaniyatli malakali, ijodiy fikrleydigan, xalqparvar va halol kadrlar tayyorlashni ta’minlash. Shu bois, ichki ishlar organlariga yuksak huquqiy ongli va madaniyatli malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish doimo davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo’lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ichki ishlar organlarining 30 yilligi munosabati bilan soha xodimlari va faxriylarini tabrikladi // 24.10.2021 y. (Manba: <https://daryo.uz/k/2021/10/24/shavkatmirziyoyev-ichki-ishlar-organlarining-30-yilligi-munosabati-bilan-soha-xodimlariva-faxriylarini-tabrikladi/>)



2. Bobojonov P.R. Tanqidiy tahlil va ustuvor vazifalar faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi // “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiy-siësiy
3. Горецкий И.И. Профессиональная подготовка сотрудников ОВД // “Научнопрактический электронный журнал Аллея Науки”, – №7(23). – 2018.
4. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) / Э.Г. Азимов, А.Н. Щукин. – М.: Издательство ИКАР, 2009.
5. Педагогический терминологический словарь. – С.-Петербург: Российская национальная библиотека, 2006.
6. Окюлов Н.О. Реформирование системы подготовки кадров в образовательных учреждениях и новые тенденции кадровой политики МВД Республики Узбекистан // Аграрное и земельное право. – 2019. – № 12(180). – С. 164-166.

